

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi (XIX asrning ikkinchi yarmi).....	203
M.M.Temirova	
O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari	208
Q.Sulaymonov	
Iqtisodiyotni globallashtirishda informatsiyaning o'rni	213
X.E.Xodjamberdiyev	
Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri.....	216
A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev	
Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi (Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida).....	222
M.M.Abdullayeva	
Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi (Namangan viloyati misolida)	226
F.Abdurasulova	
Buxoro amirligida diniy ta'limning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukmronligi davrida rivojlanishi	232
A.A.Aloxunov	
Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati	236
M.B.Siddiqov	
Ikkinchi jahon urushi yillarida pensiya tizimi	241
G.A.Abdug'aniyeva	
Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi	247
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi.....	252

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Xudoyberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati	257
G.V.Abdullayeva	
Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi.....	260
S.Q.Mamatova	
Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari.....	267
N.Y.O'roqova	
Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini	271
D.A.Qahharova	
Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili.....	280
S.A.Xaqnazarova	
An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar	287
M.Islomova	
Hayot haqiqati va badiiy tafakkur	290
A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova	
Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida)	294
Y.B.Eshmatova	
Turk hikoyachiligida an'ana va yangilanishlar sintezi.....	299
Д. О.Турдалиев	
Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации	303
F.B.Sultonqulova	
Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiati	306
G.A.Jurayeva	
Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	310



UO'K: 398.2(045)

USMON AZIM SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON TABIATI

ПРИРОДА ЛИРИЧЕСКОГО ГЕРОЯ В СТИХОТВОРЕНИЯХ УСМОНА АЗИМА

THE NATURE OF THE LYRICAL HERO IN THE POETRY OF USMON AZIM

Sultonqulova Feruza Bobonazarovna 

Termiz davlat universiteti, katta o'qituvchi, PhD

Annotatsiya

Ma'lumki, lirik turdagi asarlarda lirik qahramon mavjud bo'ladi. Ya'ni she'rda ijodkor ruhiyatining turli kechinmalari, his-tuyg'ulari lirik qahramon orqali ifodalanadi. Adabiyotshunoslikda lirik qahramonni ijodkor "meni" bilan bog'liq o'rganish muhim masalalardan hisoblanadi. Ushbu maqolada Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon masalasi va lirik "men" tabiati haqida so'z yuritiladi. Shoirning ayrim she'rlari asosida lirik qahramon tabiati, ijodkor ruhiyati bilan uyg'unligi yoritiladi. Uning ijroviy lirikaga mansub bo'lgan ayrim she'rlarida lirik qahramonda ijodkorning fazilatlarini singdirilgani badiiy tahlil etiladi. Lirik qahramon tabiatini tadqiq etish shoir she'riyatining poetikasini o'rganishda muhim o'rin tutishi aniqlanadi.

Аннотация

Известно, что произведения лирического типа имеют лирический характер. То есть в стихотворении через лирического героя выражаются различные переживания и чувства психики творца. В литературоведении важным вопросом считается изучение лирического героя по отношению к творческому «Я». В данной статье рассматривается вопрос о лирическом герое и природе лирического «Я» в поэзии Усмана Азима. На основе некоторых стихотворений поэта будет подчеркнута природа лирического героя, гармония с духом творца. В некоторых его стихотворениях, относящихся к исполнительской лирике, художественный анализ показывает, что в лирическом герое заложены качества творца. Определено, что изучение характера лирического героя занимает важное место в изучении поэтики поэты.

Abstract

It is known that lyrical works have a lyrical character. That is, in the poem, various experiences and feelings of the creator's psyche are expressed through the lyrical hero. In literary studies, the study of the lyrical hero in relation to the creative "I am" is considered an important issue. This article discusses the issue of the lyrical hero and the nature of the lyrical "I am" in Usman Azim's poetry. Based on some of the poet's poems, the nature of the lyrical hero, harmony with the spirit of the creator will be highlighted. In some of his poems belonging to performance lyrics, artistic analysis shows that the qualities of the creator are instilled in the lyric hero. It is determined that the study of the nature of the lyrical hero occupies an important place in the study of the poetics of the poet's poetry.

Kalit so'zlar: lirik qahramon, lirik men, lirik subyek, lirik obyekt, ijodkor, erk, badiiy obraz, uslub

Ключевые слова: лирический герой, лирическое «Я», лирический субъект, лирический объект, творец, персонаж, художественный образ, стиль.

Key words: lyrical hero, lyrical self, lyrical subject, lyrical object, creator, character, artistic image, style

KIRISH

Ma'lumki, epik va dramatik asarlardagi kabi lirik turda ham qahramon mavjud. Ya'ni she'r ijodkor ruhiyatining turli kechinmalari, his-tuyg'ulari va kayfiyatining mahsuli sifatida yaratilarkan, albatta, unda lirik qahramon bo'ladi. Shoir va u tasvirlayotgan qahramon o'rtasida o'ziga xos bog'liqlik kuzatiladi. Shu ikkisinin ruhiyati sintezidan vujudga kelgan umumlashma inson obrazi "lirik qahramon" deb nomlanadi. Ko'p vaqtlar davomida lirik asarlarda lirik qahramon masalasi lirik subyek, lirik men kabi istilohlar bilan ham yuritilgan. She'rda lirik qahramon tabiati botinida eng avvalo shoir ruhiyati aks etadi.

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA

Akademik Izzat Sulton "Lirik qahramon – lirik asarda kechinmalari tasvirlanayotgan kishi shoirning umumjamiyat uchun qimmatli his va fikrlarini tashuvchi shaxsdir. U shoir shaxsi bilan estetik idealning quymasidir" [1:] deb lirik qahramonni ta'riflaydi. Lirik qahramon haqida "Lirik asarlarda asosiy qahramon bitta u monologik nutq egasi "men" dir" [2] deb ta'kidlanadi "Adabiy turlar va janrlar" kitobida.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Shoir Usmon Azim ijodida ijroviy lirikaga mansub bo'lgan ko'plab she'rlar uchraydi. Uning bunday she'rlarda lirik qahramonning tabiati aniq namoyon bo'ladi. Adabiyotshunos olim D.Quronov bu haqida shunday yozadi: „XX asrning 60-yillaridan boshlab, 70-80 yillar she'riyatida tarixiy shaxslar tilidan yozilgan ijroviy she'rlarning ko'payishi kuzatildi, Bu narsa bir tarafdin milliy o'zlikni anglashga intilishning boshlangani bilan, ikkinchi tarafdin, bu xil she'rlarning „so'z aytish“ga nisbatan kengroq imkoniyat yaratishi bilan izohlanishi mumkin. Shoirimiz mavjudlikning mangu muammolari, millat va yurt taqdiri masalalari, jamiyatning joriy holatini ajdodlar ko'zi bilan ko'rish, baholashga intiladilar“ [3].

NATIJA VA MUHOKAMA

Usmon Azim she'rlari mavzulari rang-barang, obrazlar jihatidan ko'lamdor. Uning she'rlari sermazmun, betakror badiiy kashfiyotlar, xalqona ohanglar, chuqur falsafiy fikrlar va samimiy tuyg'ular izhoriga boy. Shoirning lirik qahramoni esa jo'shqin, murosasiz va „o'z-o'ziga savol berishni“ xush ko'rgan, goh „Bog'lardan kelgan she'rlar“ orasidan, goh „Alpomish“ dostoni qahramonlari, goh Hamlet, goh Elbek baxshi tilidan Haqiqat va Haq so'zni baralla aytadigan – shijoatli, mard va fidoiy. Rus shoiri B.Pasternak „Ijod – asli fidoyilikdir“ deb yozadi. Usmon Azimning o'zi ham fidoiylilik bilan xalqimiz, adabiyotimiz yuksalishiga xizmat qilib kelayotgan yuksak iste'dod sohibidir. Uning lirik qahramoni *„Men Usmon emasman, Alpteginman men, Enasoy bag'rida to'lg'ongan g'oya“*, deya o'zini o'zbekning tarixini tosh bitiklarga o'yib yozgan ajdodlarning davomchisi ekanidan faxrlanadi. Alpomish tilidan haqiqiy vatanparvarlik bilan butun elning ayollariga nasihat qiladi: *„Bolamga, „Vatan“ de ilk bora.“* Shoirning lirik qahramoni bir she'rida nihoyatda shijoat va qat'iyatli: *„Har bitta satrimga Haqiqat, Vijdon, Ishq, Dunyo, Vatanning ko'zi-la boqdim!“*. Yoki *„Faqat o'zlik ozod sohildir. Erk – azobdan uchgan g'azabmas, Erk – g'ussadan uchgan aqlidir“*. Munaqqid e'tirof etganidik: „Shoir she'rlarida Vatan obraziga parallel ravishda Erk obrazi ham yashaydi. Lirik qahramon maydalashgan, Bo'lingan, „Misqol-misqol erk“ni tan olmaydi, unga „Erk kerakdir Butunligicha“. Chindan ham Usmon Azimning lirik qahramoni tanlagan yo'lida qaytmaydigan, o'zini ayamaydigan jasur inson qiyofasida namoyon bo'ladi. U uyqusiraganlarga, loqaydlarga, e'tiqodsizlarga ashaddiy yov! Shu boisdan Usmon Azim she'rlarining xulosalari nihoyatda baquvvat, zalvorli, hayqiriq, jonkuyarlik, iztirobdan iborat“ [4]. Shoirning lirik qahramoni o'zi yashab turgan davrga shunchaki ko'z tashlamaydi. Mustabid tuzumning bor kirdikorlari, jamiyatda yuz bergan voqealarga munosabat, erk va ozodlik orzusi, haqiqatga tashnalik, yolg'on tuzum va yolg'onning o'zidan nafrat uning lirik qahramoni tabiatiga xos xususiyatlardandir. U lirik qahramon tilidan nafaqat davrni, balki unda yashayotgan Inson faoliyatini ham ayovsiz taftish qiladi. Shiddatkor misralarida shoir Haqiqatni yozadi, Yolg'onlardan yuz buradi.

Bu yolg'on chaqqondir,
Bu yolg'on – chapdast.
Qochdingmi – quvonib,
Quvishni qo'ymas,
Bu yolg'on – fitnachi
Qochdingmi yomon,
O'zini botir deb qiladi e'lon.
Bu yolg'on aqlli,
Bu yolg'on ayyor.
Kurashchi deb o'zini
Atashga tayyor [5:230].

She'rdan lirik qahramon kuzatuvchi subyek bo'lib, o'zining atrofda yashayotgan insonlarning asl qiyofasida Yolg'on borligini fosh qiladi. Hatto „Ko'ngilchan odam“ning yolg'ondan qochishini ham oddiy qabul qilmaydi: „To'xta! Rahming kelsin o'zing o'zingga G'ijinib bir qara Yolg'on ko'ziga“. Afsuski, *chapdast, chaqqon, fitnachi, sotqin, aqlli, ayyor, kurashchi* – kimsalar o'z manfaati yo'lida hamma ishga „tayyor“ligini o'tkir kinoya bilan tilga oladi. *Yolg'on* metaforasini qo'llash orqali jamiyatdagi bunday insonlarning asl qiyofasini o'quvchi anglaydi. Demak, ushbu she'rda jamiyatni nopoklikka yuz tuttirgan yolg'onchi va manfaatparast insonlar lirik obyekt qilib olinadi. Shoir ularning botinidagi qusur va illatlarga shunchaki ko'z yumib qo'ymaydi, uning lirik qahramoni jamiyatdagi yolg'onchilik illatini o'tkir kinoya bilan fosh etibgina qolmay, undan nafratlanishi ham sezilib turadi.

Usmon Azim she'rlarida erkka talpinish, Haqiqatni izlash, yolg'ondan nafrat bejiz emas. Chunki, u she'riyatga kirib kelgan o'tgan asrning 70-yillarida yurtimizda mustabidlik hukm surar, tengsizlik loqaydlik, madhiyabozlik va qog'ozbozlik kabi illatlar qusur topib borar, bunga qarshi bosh ko'tarmoq esa xalqni erkparvar g'oyalarga yetaklovchi qalami o'tkir, vijdoni pok va ezgu niyatli ijodkorlar zimmasiga tushgan asosiy vazifaga aylanib ulgurgan edi. Bu g'oyalarni shoir "Brut", "Gladiator", "Turmush manzaralari", "Suflyor monologi" "Ballada", "Bu joy teatrmas" she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Brut she'ridagi lirik qahramon tabiatida vatanparvarlik, haqparastlik bilan birga xoinlarga nafrat tasvirlanadi:

Padarimni Pompey o'ldirdi.
Ko'ksimda o'ch tursa-da muzlab,
Vatanimni suygan uchun,
Men Pompeyga qilaman xizmat.
Sezar, Vatan o'ynashing emas
Sezar, Vatan onadir faqat.
Volidani e'zozlamoq farz,
Ammo xo'rlash og'ir qabohat[5].

Lirik qahramon tilidan shoir mustamlaka yurtda Sezar kabi buyuk bo'lsa-da, "Do'st-yorlaring el ko'ziga cho'g' bosganda jim qarab turgan" "vatansizlar" qiyofasini fosh etib, El-yurtni sotish "eng mudhish" gunohligini ta'kidlaydi. Afsuski, jamiyatda el-yurt manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'yuvchi nafs meshchanlar hamma davrlarda uchragan.

Shoirning Erk va Ozodlik g'oyalari ilgari surilgan "Abdulla Qodiriy", "Usmon Nosirning so'nggi tushi", "Oybekning so'nggi she'ri", "Maqsud Shayxzoda", "Bazm", "Cho'lpon", "Cho'lpon. Sevgi", "Fayzulla Xo'jaev monologi" kabi ishe'rlaridagi lirik qahramon sifatida bir qarashda XX asr o'zbek adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolari turgandek taassurot uyg'otadi. Biroq shoir bu ulug' vatandoshlarimizning achchiq qismatida o'z zamonasida ham bo'layotgan sotqinliklar, erksizlik va adolatsizlikka qarshi isyon ko'taradi. Ayniqsa, Cho'lpon fojeasi tasvirlangan "Bazm", "Cho'lpon", "Cho'lpon. Vatanni sevmok", "Cho'lpon. Sevgi" kabi she'rlarida lirik qahramon tilidan mash'um davr qatag'on siyosatining mudhish kirdikorlarini fosh qiladi. "Bazm" she'rida lirik qahramon o'sha siyosatdan nohaq mahv etilgan siymolar bilan suhbat quradi: "Kim u yuraklarni itga talatgan? Men ham bu talonda turibman dilgir – Paymonni teng berdi bizga yaratgan, Yo rab!.. Hammamizning qotilimiz bir..." [5].

Yoki Cho'lpon tilidan yozganidek:
It akkillab aylanar hushyor,
Bosar xavfni unutgan kasni.
Men shu holda yashadim bedor –
Ko'rmaganday yovuq qafasni.
Dilda bunyod so'zlarim – "yo haq!"
Oqibatda sig'di nafasga.
Men qo'rquvni rad etdim mutlaq,
Va ozodlik qurdim qafasda[6].

"Qafas" ichra Ozodlik qurish nafaqat Cho'lpon uchun, balki shoir uchun ham xos edi. Bu fojeani anglagan shoir o'z kechinmalarini, kezi kelganda aytish mumkinki, joniga dard solgan iztiroblarni lirik "men"ida ifodalashga jur'at topadi. Lirik qahramon tilidan o'z iqroriga keltiradi: "Zamonning botinu zohirigacha, Ko'rib anglab yetdi zukko she'riyat". Shu o'rinda shoir ijodini o'rgangan adabiyotshunos olim Tohir Shermurodov aytganidek "Ma'lum bir she'riyatning istalgan jihati tadqiqi ham "men"ni sinchkov kuzatish, o'rganish bilan bo'ladi. "Men"ga doir hukm-xulosalar — lirik qahramonga, demakki, shu she'riyat, uning ijodchisiga baho. "Men" bilan, uning bayon etish manerasi bilan tanishuv va "muloqot", shuningdek, uni ilmiy-nazariy tadqiq etish adabiyot ilmidagi doimo dolzarb, ahamiyatli ish"[7]dir.

Uning lirik qahramoni zamondoshlariga qarata o'z yuragini baxshida etishga tayyor turadi.
Nima ham berardim men senga dunyo,
Sening bozorlaring boyvuchcha kelin.
Dunyo bozorlari odamlariyo
Oling yuragimni sotgani keldim.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Shoirning lirik “men”i “ulkan” isyonkor “yuragi” qusur va illatlarni sig’dirolmaydi, har qanday nohaqliklarga qarshi turadi va loqaydlikni aslo hazm kilolmaydi. Yuraklarning osmon kabi yuksalishini, barcha yomonliklardan xoli bo’lishini orzu qiladi. Hattoki, uning haqiga hech narsa tilamaydi, faqat osmon kabi “yuksaklik”ni istaydi.

Sizdan so’ramayman haqiga osmon,
Faqat osmon kabi yuksaling, axir [5].

Insoniy komillika erishish hazrat Alisher Navoiy asarlarining bosh g’oyasi edi. Shoir ham lirik qahramoni tilidan “Osmon kabi yuksaklik” – komil insoniylikni orzu qiladi. Ayni uning ulkan yuragi – “yurakni mayda-maydalab” olishga o’rganib qolgan odamlarni kechiradi, o’quvchi shoirni go’zal insoniy fazilatlar va tuyg’ular sohibi sifatda ham qadrlaydi. Shu bois munaqqid Qozoqboy Yo’ldoshev shoir she’rlarining lirik qahramonini “...yuksak rahmoniy tuyg’ularga intilgan, faqat yaxshilik istagan, ezgulikka jonini bag’ishlashga tayyor shaxs” [8] deb baholaydi. Insoniy komillikka da’vat qilingan yuqoridagi she’rda lirik “men” tabiatidagi asosiy fazilatlar shoirning ham to’laqonli o’zligini namoyon ettiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Usmon Azim she’rlarida lirik qahramon tabiatini uning lirik “men”i bilan bog’lab o’rganish shoir ijodining yangi qirralarini aniqlashga hamda shoir poetikasini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Sulton I. (2005) Adabiyot nazariyasi – T.: “O’qituvchi” NMU, 262.
2. Adabiy tur va janrlar. 3 jildlik. II jild. Lirika. (1992) – T.: Fan, 63.
3. Quronov D. (2018) Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: “Navoiy universiteti”, 395.
4. Solijonov Y. (2013) Ko’zgudagi hayot: adabiy-tanqidiy maqolalar, suhbatlar. T.: O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 89.
5. Usmon Azim. (1995) Saylanma. – T.: Sharq, 230.
6. Usmon Azim (2010) Fonus. – T.: Sharq, 61.
7. Shermurodov T. 2009. Jozib sehr izlab. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy kutubxonasi, – 160.
8. Yo’ldoshev Q. (2018) So’z yolqini. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 77.